

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA DARSLARINI DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI TASHKIL QILISH

Xamroyeva Guzal Xuroz qizi

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI
SAMARQAND filiali Boshlang'ich ta'lim nazariyasi
2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14958169>

Annotatsiya. Bugungi kunda ta'limda didaktik o'yinlar barcha fanlarni o'qitishda keng qo'llanilib kelmoqda. Didaktik o'yinlar o'zining maqsad, vazifalari, tarkibi qismlari, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuningdek didaktik o'yinlar orqali dars tashkil qilishda ma'lum bir oldindan tayyorlangan bosqichlarga amal qilish va faoliyatda o'qituvchining o'rni ham benihoya kattadir. Maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlarni tashkil qilish va ularning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yin, boshlang'ich sinf, jamoaviy ruh, faollik, fikriy hujum, "6x6x6".

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darslarini didaktik o'yinlar orqali tashkil qilishda, o'qituvchi an'anaviy ta'limdan farqli ravishda faoliyat olib boradi, u boshqaruvchi, yo'naltiruvchi, tasdiqlovchi, baho beruvchi vazifalarni bajaradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanishdan maqsad o'quvchilarning bilimlarini ongli, faol va yuqori o'zlashlashtirilishlarga erish va ularni mustaqil ilmiy-ijodiy izlanuvchanlik faoliyatga tayyorlash, bilim ko'nikmalarini shakllantirish, ularda ijtimoiy-siyosiy ongliklik, mas'uliyatlilik sifatlarini tarbiyalashdan iborat.

Didaktik o'yinlar asosida faoliyati tashkil qilish davomida o'qituvchi o'quvchilarga o'quv materialini shunchaki yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, ularni birga fikrlashga, mushohada qilishga undaydi, faollashtiradi, o'quv-bilish faoliyatlarini maqsadli tashkil qiladi. Nazariy ma'lumotlarning real jarayonlarga qay darajada to'g'ri kelishini isbotlash maqsadida o'quvchilarni hamkorlikda faol izlanishlar olib boradilar, muammo yechimining turli variantlarini ishlab chiqadilar va eng maqbul usul va vositalarni tanlaydilar, natijalarni amaliy tadbiq qilishni o'rganadilar. Didaktik o'yinlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darslarini tashkil qilishda, vaziyatlarni tahlil qilish davomida o'quvchilar birgalikda faol izlanadilar, vaziyatning yechimini qidiradilar, masalani hal qilishning turli variantlarini ilgari suradilar va eng maqbul variantlarini tahlil qiladilar. Ularda shaxsiy tanqidiy munosabatlar tarkib topadi, mulohazalari asosililigini isbotlash uchun muayyan izlanishlar olib boradilar, bir qator ilmiy konsepsiyalar orasidan eng qulayini tanlaydilar, qo'lga kiritilgan natijalarni taqqoslaydilar, fikrlarni umumlashtirib, aniq xulosalarga kelinadi va faoliyat samarasini ta'minlashga xizmat qiladigan qarorlarni taxmin qilinadi va imkoniyat darajasida amalda qo'llab ko'riladi. Bu jarayonda o'quvchi bo'lg'usi mutaxassis sifatida jarayonni keng tahlil qiladi, darsliklarda keltirilgan ma'lumotlarga nisbatan ma'lum nuqtai-nazarni shakllantiradi, aniq dalillar asosida bahs-munozara yuritadi, dalillarning asosli yoki asosli emasligi haqida o'ylab ko'radi, o'z faoliyatini ijodiy tashkil qilishni o'rganadi. Masalalarni chuqur va keng qamrovli tahlil qilish asosida o'quvchining ilmiy tafakkuri rivojlanadi, mantiqiy izchillikda fikr yuritish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Ta'lim jarayonida

qo'llanadigan o'yinlar qisqa vaqtga mo'ljallangan holda, guruh bo'lib mashq qilishga odatlantiradi, oldindan tayyorgarlikni talab etmaydi. O'yinlar vaqtida kichik guruhlar faolligi ortadi, ta'lim ishtirokchilarining diqqati ishga (ta'lim jarayoniga) to'liq jalb etiladi.

O'yinlar vositasida o'quvchilarga yangi bilimlar berish, ko'nikma hosil qilish, kichik guruhlar a'zolarining ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish mumkin. Matematika darslarida didaktik o'yinlarni darsning kirish yoki yakunlovchi qismida o'tkazish mumkin. Didaktik o'yinlarni maqsadiga ko'ra 7 turga ajratish mumkin:

1. Guruh bo'lib ishlash uchun sog'lom muhit tashkil etishga qaratilgan didaktik o'yinlar:

- guruh a'zolarining o'zaro bir-birini tushunishlariga yordam beradi;
- guruh bo'lib ishlash ishtiyoqini oshiradi;
- guruh a'zolarining o'zini erkin his etishlarini ta'minlaydi, charchoqni tarqatadi.

2. Umumiy qiziqishlarni aniqlashga yo'naltirilgan o'yinlar:

- guruh a'zolarining ichki munosabatlarini tezda tiklashga yordam beradi (umumiy qiziqishlar, orzularni aniqlash orqali);
- guruhga yangi qo'shilgan a'zolarining (o'quvchilarning) yangi sharoitga moslashishlariga yordam beradi.

3. Guruhning birligini qo'llab-quvvatlovchi o'yinlar:

- o'zaro munosabat me'yorlarini o'rnatishga yordam beradi;
- guruhning birligini, jipsligini mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'ladi.

4. O'zaro bog'lovchi o'yinlar:

- bir mavzudan ikkinchi mavzuga yengillik bilan, tabiiy o'tishni ta'minlaydi;
- turli tushunchalarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi;
- yangi mavzuni o'rganishni yakunlash bosqichini faollashtiradi.

5. Rag'batlantiruvchi o'yinlar:

- guruh bo'lib ishlashga rag'batlantiradi;
- murakkab mavzularni muhokama qilishga yordam beradi;
- dars davomida "nafasni rostlab", ishni davom ettirishga yordam beradi.

6. Ijodkorlikni rag'batlantiruvchi o'yinlar:

- dunyoga boshqacha ko'z bilan qarash, ta'limda innovatsion metodlarni qo'llashga yordam beradi;
- o'yin qatnashchilari o'zlarining yangi qirralarini kashf etadilar, yangilikni qabul qilish ko'nikmasini hosil qiladilar.

7. Yakunlovchi o'yinlar:

- katta mavzularni o'rganishni yakunlash, egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi;
- ta'limning innovatsion metodlarini baholash va unga munosabat bildirishga o'rgatadi.

Ta'lim jarayonida qo'llangan har bir o'yin yakunida o'qituvchining sharhiga vaqt ajratiladi. Bunda u yoki bu o'yin guruh a'zolari tomonidan qanday qabul qilingani, guruhda qanday g'oyalar tug'dirganini sharhlashga e'tibor beriladi.

Didaktik o'yinlarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;
2. Muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish;
3. O'z-o'zini fikrlashga majbur etish;

4. Faollashtirish;
5. O'quvchilarni tashkilotchilik va yo'naltiruvchanlikka undash;
6. Do'stona munosabatlarni shakllantirish.
Interfaol usullardan foydalanishda quyidagi shakllarda darslarni tashkil etish mumkin:
 1. Yakka tartibda ishlash
 2. Juftlikda ishlash
 3. Kichik guruhlariga ishlash
 4. Tabaqalashtirish
 5. O'zaro muloqot va hamkorlikda ishlashni tashkil etish

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni darslardagi faolligini oshirish hamda jamoaviy ruhni tarbiyalash maqsadida didaktik o'yinlardan foydalanish darsni yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi. Matematika darslarida qo'llaniladigan didaktik metodlardan "Fikriy hujum" va "6x6x6" metodlari boshlang'ich sinf matematika darslari uchun tashkil etilgan samarali metodlardan hisoblanadi. "Fikriy hujum" metodi boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf matematika darslarida bu o'yinni tashkil qilishda o'quvchilarga berilgan masalalar, mantiqiy topshiriqlar yuzasidan o'quvchilardan javoblar olinadi va oxirida o'qituvchi yakuniy xulosani aytadi. "6x6x6" metodi yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo, masala yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda matematika darslarini didaktik o'yinlar asosida tashkil qilish o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Shuningdek, didaktik o'yinlar orqali ta'lim jarayonini jonlantirish, darsni zerikarli bo'lishining oldini olish va o'quvchilarning faolligini oshirish mumkin. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish bilan birga ularning mantiqiy fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

References:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar sarhisobi, yangi vazifa va takliflar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2024-yil 28-iyun, Toshkent.
2. M.E.Jumayev, Z.G'.Tadiyeva "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". - T.: "Fan va texnologiya", 2005.
3. I.V.Repyova, Y.V.Zemlina "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4 - sinf darsligi", 1-4 qismlar. - Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023.

4. N.Gaipova, K.Girfanova Matematika (2-sinf uchun darslik). – T.: “Novda Edutainment”, 2023.
5. N.Gaipova, M.Mirsalikov Matematika (1-sinf uchun darslik). – T.: “Novda Edutainment”, 2024.
6. Raximov Shahriyor Normurod o‘g‘li, & Nurmetova Charosxon. (2024). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING MATEMATIK BILIMLARINI NOSTANDART TOPSHIRIQLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH KO‘NIKMALARI. *TA‘LIM, AXLOQ VA QADRIYAT JURNALI*, 3 (5), 212–216. <https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/671> dan olindi
7. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Pascal_\(dasturlash_tili\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Pascal_(dasturlash_tili)).
8. https://teletype.in/@terdu_df/Hk-XOADoS.